



**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA
KELTIRILGAN ORONIMLARNING LEKSIK – SEMANTIK TAHLILI**

Muxiddinova Durdona Odilovna

*Sharof Rashidov nomidagi SamDU Markaziy Osiyo xalqlari tillari va
madaniyati instituti talabasi*

Yusupova Orzibonu

*Sharof Rashidov nomidagi SamDU Markaziy Osiyo xalqlari tillari va
madaniyati instituti f.f.b.dotsenti*

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning tarixiy – adabiy merosi bo'lgan "Boburnoma" asarida uchraydigan ayrim oronimlar – tog', to'g' tizmalari, dovon, balandlik nomlarining lingvistik tabiati tahlil qilingan. Har bir oronimning matndagi vazifasi, semantik yuklamasi, tarixiy - toponimik ahamiyati hamda Bobur tilidagi uslubiy funksiyasi ochib beriladi.*

KALIT SO'ZLAR: *oronim, relyef, kon, toshtaroshlik, mehriyoh, qo'rg'on.*

KIRISH

Oronimlar – yunoncha “oros” – tog' ma'nosini anglatib, yer yuzasining Ularni o'rganuvchi bo'lim *oronimika* deyiladi. Oronimlarning shakllanish va rivojlanishini ma'lum bir davr bilan bog'lash imkonsiz, ularning uzoq asrlik taraqqiyot mahsuli, shu bois leksik – semantik va yasalish jihatdan gidronim va oykonimlar bilan bir umumiy yaxlit mikrotizimga kiradi.

Oronimlar jamiyat taraqqiyoti, tildagi lisoniy o'zgarishlar, undan foydalanish va u bilan kelgan munosabatlar natijasida, ya'ni bo'lgan ehtiyoj tufayli tarixiy davrlar davomida juda kam o'zgarishi isbotlangan. Shunday ekan, oronimlarning aksariyati boshqa turdagi geografik nomlarga nisbatan qadimiy va ularning lingvistik tahlili murakkabdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Asarda O'sh, Xo'jand, Farg'ona, Samarqand kabi yirik shaharlarning geografik tuzilishi haqida ma'lumotlar uchraydi. Quyida shu shaharlardagi oronimlarni tahlil qilamiz.

Baroko'h tog'i – O'shning fazilati haqida ko'p ovozar bor. Qo'rg'onning sharqi janubida bir ko'rkam tog' qad rostlagan, Baroko'h deb nomlanadi. Bu tog'ning cho'qqisida Sulton Mahmudxon bir hujra solgan. Ushbu tog'ning tumshug'ida men bir ayvonli hujra soldirdim.

Mevag'ul tog'i – Yana biri Xo'janddir, Andijondan g'arb tomonga yigirma besh yig'ochlik yo'lda ... Qo'rg'on bilan daryoning shimol tarafida bir tog' tushgan, Mevag'ul tog'i. Bu tog'da feruza koni va boshqa ma'danli konlar topiladi, deyishadi. Bu tog'da ilon ko'p bo'ladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Hodarvesh – Xo'jand va Kandibodom orasida Hodarvesh nomli bir dasht bor. Bu dashtda hamisha shamol esadi. Bundan sharq tomonda Marg'inonga ham shu yerning shamoli boradi.

Yettikent – Farg'ona viloyatining atrof-tevaragidagi tog'larda yaxshi yaylovlar bor ... Bir giyohni Yettikent tog'larida bo'ladi, deyishadi, nomi "ayiqo'ti" emish; mehrijiyoh xosiyatli, aftidan o'sha mehrijiyohdir, u el bu nom bilan aytadi.

Siri – Sulton Ma'sud Mirzo Hisorda turmoqning yo'lini topolmay, Kamrud anhuri yoqalab, yuqori Siri tog' yo'li bilan inisi Boysunqur Mirzo qoshiga – Samarqandga ketdi.

Shovdor – Bu muddatda Samarqanddan boshqa barcha qo'rg'onlar va tog'u tuz qo'l ostimga kirib edi. Shovdor tog'ining etagida Urgut nomli qo'rg'onni bir jamoa berkitdi.

Qo'lba – Bir necha kundan so'ng ko'chib, Ko'hakning orqasi – Qo'lbaning boshiga tushildi.

Ko'hak – Bu suv bilan Samarqand orasida bir tepalik bor, uni Ko'hak (kichik tog') deydilar. Bu daryo Ko'hakning tubidan oqqani uchun Ko'hak suvi deydilar.

Itmak dovoni – Yana Kesh viloyatidir. Samarqand bilan Kesh orasida bir tog' tushgan: Itmak dovoni deydilar. Toshtaroshlik uchun toshlarning hammasini bu tog'dan olib ketadilar.

XULOSA

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari — o'zbek xalqining tarixiy, madaniy va tabiiy merosini mujassam etgan beqiyos manba bo'lib, undagi oronimlar ana shu merosning muhim qatlamini tashkil etadi. Asarda tilga olingan tog' nomlari, dovonlar, qirlar, jarlar, vodiylar va balandliklarga oid atamalar nafaqat geografik ko'rsatkich sifatida, balki Bobur shaxsiy hayoti, siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari va badiiy tafakkurining bir bo'lagi sifatida alohida semantik yuk ko'taradi. Bobur oronimlardan foydalanish jarayonida har bir hududning tabiiy ko'rinishi, iqlimi, ahamiyati, tarixiy voqealar bilan bog'liqligini tasvirlab, bizni o'sha vaqt va makonga go'yo bevosita olib kiradi. Umuman olganda, Boburnomadagi oronimlarning leksik-semantik tahlili bizga Bobur iste'dodining ko'lamini, uning geografik bilimlarining puxtaligini, til boyligining kengligini va badiiy tafakkurining yuksak darajasini ko'rsatib beradi. Oronimlar Bobur uchun oddiy joy nomi emas, balki uning hayoti, ijodi va tarixiy dunyoqarashining ajralmas bo'lagidir. Shu sababli, ushbu birliklarni o'rganish nafaqat toponimika, balki tarix, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va madaniyatshunoslik uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega..

Adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma: Hozirgi o'zbek tilidagi tadbili. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
2. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
3. Hakimov Q., Mirkamilov M. Toponimika. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



4. <https://uz.wikipedia.org>
5. <https://zenodo.org>

